

**DRAMATURGIYADA KONFLIKT ATAMASI VA UNING AHAMIYATI****Nozima Ulug'ova Bahtiyorovna**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7260037>

**Annotasiya.** Dramaturgiya va teatrdagi hech qachon to'qnashuvsiz sahnada hayotni namoyon qilish mumkin emas. Bayonchilikdan iborat asar hech qachon dramaturgik asar degan nomga ega bo'lmaydi. Bayonchilik faqat hikoya va romanlarga xos uslub, konflikt esa dramaga xos uslub, konflikt esa dramaga xos uslub hisoblanadi. Agar konflikt xarakterlar qararni qarshiligi ya'ni ziddiyati sifatida qaraladigan bo'lsa, kompozitsiya bu konfliktni dramatik harakatda amalga oshirilishidir. U o'z navbatida til (monolog, dialog) yordamida amalga oshiriladi. Drama kompozitsiyasini dramatik harakatni vaqt va makonda tashkil qilish sifatida belgilash mumkin. "Har qanday tragediyada tugun va yechim bo'lishi zarur. Dramada tashqaridagi barcha voqealar, shuningdek, ba'zan dramaning ichidagi ayrim voqealar–tugun qolganlari esa – yechimdir. Men tragediyaning boshlanishidan to (qahramonning )baxtsizlikdan baxtiyorlikka yoki baxtiyorlik dam baxtsizlikka tomon o'tish harakati boshlangan chegaragacha bo'lgan qismini tugun deb atayman. Ana shu o'tish boshlangan joydan asarning oxirigacha bo'lgan qism yechimdir"<sup>3</sup>

**Kalit so'zlar:** Dramaturgiya, sahna, konflikt, to'qnashuv, ziddiyat, kurash, kolliziya, aktyor, janr

**ТЕРМИН КОНФЛИКТА И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ДРАМАТУРГИИ**

**Аннотация.** В драматургии и театре никогда не удается бесконфликтно показать жизнь на сцене. Повествовательное произведение никогда не будет называться драматургическим произведением. Нарратив — это всего лишь стиль рассказов и романов, конфликт — это стиль драмы, а конфликт — это стиль драмы. Если конфликт рассматривать как конфликт характеров, то композиция есть воплощение этого конфликта в драматическом действии. Оно, в свою очередь, осуществляется с помощью языка (монолог, диалог). Драматическую композицию можно определить как организацию драматического действия во времени и пространстве. «У любой трагедии должен быть узел и решение. В драме все события снаружи, а иногда и некоторые события внутри драмы — остальное — это разгадка. Я называю часть трагедии от начала трагедии до границы, где начинается переход от несчастья к счастью или от счастья к несчастью. Часть от начала этого перехода до конца работы и есть решение»

**Ключевые слова:** Драматургия, сцена, конфликт, конфликт, конфликт, борьба, столкновение, актер, жанр.

**THE TERM OF CONFLICT AND ITS SIGNIFICANCE IN DRAMATURGY**

**Abstract.** In dramaturgy and theater, it is never possible to show life on stage without conflict. A narrative work will never be called a dramaturgical work. Narrative is only a style of stories and novels, conflict is a style of drama, and conflict is a style of drama. If the conflict is considered as a conflict of characters, then the composition is the implementation of this conflict in a dramatic action. It, in turn, is carried out using language (monologue, dialogue). Drama composition can be defined as the organization of dramatic action in time and space. "Any tragedy must have a knot and a solution. In the drama, all the events outside, and sometimes some events inside the drama - the rest - are the solution. I call the part of the tragedy from the

*beginning of the tragedy to the border where the transition from unhappiness to happiness or from happiness to unhappiness begins. The part from the beginning of this transition to the end of the work is the solution"*<sup>3</sup>

**Keywords:** *Dramaturgy, scene, conflict, conflict, conflict, struggle, collision, actor, genre*

## KIRISH

Dramaturgiya badiiy adabiyotning ajralmas bir bo'lagi hisoblanib turli janrlarda bo'lib o'rganiladi. Xususan Drama, komediya, tragediya, tragikomediya, melodrama, monodrama va hakazo. Voqe'liklardan tashkil topgan jamiyki asarlarda konflikt atamasi bo'lishi shart.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Konflikt- dramaning asosini tashkil etib, asar syujetini ishga soluvchi, unga alohida kuch beruvchi qudratli vositadir. Konflikt asar g'oyasini, muallifning ijodiy niyatlarini, personajlarning o'zaro aloqalari va ular o'rtasida yuz bergan kurashni ifoda etadi. Demak dramaturgik konflikt –voqeylikdagi ziddiyatlarning badiiy ifodasidir. Konflikt, ayniqsa, dramada hal qiluvchi omildir. Aristotelning Poetika asarida konflikt atamasi kolliziya terminiga yaqin turishi keltirib o'tiladi. Aslida ham konflikt va kolliziya atamasi kolliziya terminiga yaqin turishi keltirib o'tiladi. Aslida ham konflikt va kolliziyaga nisbatan torroq ma'noni anglatgan.

“Dramatik konfliktning mazmuniy mohiyati va voqelikka bo'lgan munosabati masalasi birinchi masala hisoblanadi. Dramaturgik konflikt haqqoniy to'qnashuvga o'xshash emas, ammo u umuman doim hayot bilan belgilanadi. Konflikt-konkret tarixiy kategoriya (kategoriya–yun. So'z bo'lib, ayblash, ta'na qilish degan ma'noni anglatadi. Moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning eng muhim xususiyatlar va aloqalarini ifodalovchi umumiy tushuncha) hisoblanadi, qarama-qarshiliklarga to'la haqqoniy hayotni badiiy, dramatik ifodasidir”<sup>1</sup>

Dramaturgik konfliktni dramatik xarakterda ajratib bo'lmaydi, negaki faqat konfliktda umumiylik, ijtimoiylikni o'z shaxsiyatida jamlovchi qahramon xakteri ochib beriladi. Faqat xarakter orqaligina konflikt realistik pyesada ifodalanishi mumkin. Biror bir dramatik asarda biror ko'ngilsiz yoqimsiz hodisa, voqea yuz bersa, u bevosita dramaga olib bog'lanadi. Asar qahramoni yomon hodisaga duch kelgan, dramani boshidan o'tkazgan, ko'ngli ranjigan qiyofada tasvirlanadi. U asar voqealar davomida butun kuch – qudratini dramatik hodisadan qutilish uchun sarf qiladi, g'alvalardan forig' bo'lishga intiladi. Demak drama o'zida mushkullikni, qiyinchilikni ifoda etsa, konflikt esa keskinlikni, qiyin vaziyati, og'ir ahvolni vujudga keltiradi. Nazariyachilar dramaturgik konfliktga quyidagicha ta'rif berishadi. Birinchidan, qarama-qarshi kuchlar, tendensiyalar kurashi usulidagi konflikt, ikkinchidan qarama-qarshi kuchlar, tendensiyalar kurashi usulidagi konflikt, ikkinchidan qarama-qarshi xarakterlar kurashi tarzidagi konflikt, uchinchidan esa, qarama-qarshi tuyg'ular kurashi yoki ichki kolliziya tarzidagi konflikt. Demak voqeylikdagi ziddiyatlar insonlararo to'qnashuvlar oqibatida paydo bo'ladi.

Ma'lumki, konfliktlar personajlarning ichki olami, ruhiy holati bilan ularning ongi, his tuyg'ulari bilan bevosita bog'lanadi. Dramaturgik konflikt mazmun va shaklning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berishi bilan hayotning spesifik ifodalash vositasi ekanligini isbot qiladi. Harakat bu olg'a qarab halokat sari yurishdir. Konfliktni halokatda ochib va kuchaytirgan drama kurashni murosa orqali hal qiladi. Shunday qilib kurash, halokat, murosa- dramatik harakatning, uning xususiyatini belgilovchi va lirika, eposlardagi harakatdan farqlab turuvchi jihatlar ekan. <sup>2</sup>

Dramaturgiya va teatrda hech qachon to'qnashuvsiz sahnada hayotni namoyon qilish mumkin emas. Bayonchilikdan iborat asar hech qachon dramaturgik asar degan nomga ega

bo'lmaydi. Bayonchilik faqat hikoya va romanlarga xos uslub, konflikt esa dramaga xos uslub, konflikt esa dramaga xos uslub hisoblanadi. Agar konflikt xarakterlar qarama-qarshiligi ya'ni ziddiyati sifatida qaraladigan bo'lsa, kompozitsiya bu konfliktni dramatik harakatda amalga oshirilishidir. U o'z navbatida til (monolog, dialog) yordamida amalga oshiriladi. Drama kompozitsiyasini dramatik harakatni vaqt va makonda tashkil qilish sifatida belgilash mumkin. "Har qanday tragediyada tugun va yechim bo'lishi zarur. Dramada tashqaridagi barcha voqealar, shuningdek, ba'zan dramaning ichidagi ayrim voqealar–tugun qolganlari esa – yechimdir. Men tragediyaning boshlanishidan to (qahramonning )baxtsizlikdan baxtiyorlikka yoki baxtiyorlik dam baxtsizlikka tomon o'tish harakati boshlangan chegaragacha bo'lgan qismini tugun deb atayman. Ana shu o'tish boshlangan joydan asarning oxirigacha bo'lgan qism yechimdir"<sup>3</sup>

## **TADQIQOT NATIJALARI**

Nazariyotchilar konfliktni bunday ta'riflaydi. Qarama-qarshi bo'lgan kuchlar o'zaro tarfakashlik tendensiyalari usulidagi konflikt, xuddi shuningdek nomutanosib xarakterlar to'qnashuvi tarzidagi konflikt, uchinchidan bir-biriga zid tuyg'ular jangi tashqi yoki ichki komediya yo'sindagi konflikt yuzaga keladi. To'qnashuv turlicha dunyoqarashga ega bo'lgan kishilar aro bo'lishi mumkin. Qonuniylik yoki noqonuniylik o'rtasida yuzaga kelishi ehtimoldan holi emas. Ma'lumki konflikt ikki xil bo'ladi. Antagonistik va noantagonistik. Bunday konfliktlar bir-biridan farq qilishi bilan farqlanadi. Antagonistik konfliktida sinflar, guruhlar kurashi yotadi. Bulardan manfaati, taraflari keskin kurashni talab qiladi. Ular keltirib chiqargan antagonistik ziddiyatlar isyonlar inqiloblarni o'zida aks ettiradi. Konfliktning keskinligi, xarakterning to'laqonliligi badiiy namoyon bo'lishi. O'zbek kino asarlaridan Tog'ay Murod romani asosidagi "Otamdan qolgan dalalar" Shuhrat Abbosov rejissyorligidagi filmda namoyon bo'ladi. Bosqichlarning o'z tizimlarini o'rnatish uchun shafqatsizliklar qilishi, mahalliy aholini, azob-uqubatlari va antagonistik ziddiyati yorqin misoldir. Bu filmda o'rnatilgan hayotiy sharoit bilan xalq vakillari o'rtasida borgan qahramonlarning ziddiyatlarida o'z ifodasini topadi. Filmida asosiy kolleziyani sodir etilishidan avval kurashga tushgan shaxslar o'zlarini nimalarga qodir ekanliklarini bildiradilar. Bosqinchilik va mahalliy aholi o'rtasidagi to'qnashuv o'sha zamon uchun xarakterli ziddiyatlarning hayotiy namunasi hisoblanadi. Konflikt asarda nafaqat personajlarni harakatga keltiradi. Qahramonlarning qilmishlarini ham fosh qiladi. Balki ruhiyatini ham namoyish qiladi. Qahramonlarni ichki olami shaxslar orasida o'sishi va rivojlanishi film davomida namoyon bo'ladi. Qahramonlarni ozodlik yo'lida chekkan iztiroblari kolleziyani aniq va tiniq ko'rinishga xizmat qiladi.

## **MUHOKAMA**

Xarakterlar o'rtasida ziddiyat ichki kurashni keltirib chiqaradi. Qahramon ongida bo'ladigan o'zgarish xoh u salbiy xoh u ijobiy bo'lsin, iztiroblar gumonsirashlar bu konfliktni tashqi turtki natijasi sifatida ko'rinadi. Buni ichki kolliziya deb qabul qilsa ham bo'ladi.

## **XULOSA**

Konfliktlar qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy kolliziyasi bilan ong tuyg'ulari bilan bevosita bog'lanishi mumkin. Konflikt ikki xil qiyofaga ega biri ichki qiyofa ikkinchisi tashqi qiyofada namoyon bo'ladi. Tashqi konflikt ochiq kurash ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ichki konflikt kolliziya qahramonlarning ngi-ruhiyatida bo'lib o'tgan holda bo'ladi va ichki ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Hayotda shunday shaxslar uchraydiki, ularning harakati ham antoganistik, ham noantoganistik konfliktlar bilan aloqador Bu o'rinda biz konfliktlarga qat'iy chegara qo'yish o'rinsiz deb bilamiz. Konflikt voqea va qahramonlarning kurashuvi yig'indisi

sifatida ta'rif berishni to'g'ri deb tushunamiz. Konflikt asarda mazmun va shaklni o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib beradi.

## REFERENCES

1. To'laxo'jayeva M. Qozoqboev T. Drama nazariyasi. Toshkent. (2015 yil. 35-b)
2. Faxriddin Abduvohidov. Drama nazariyasi o'quv qo'llanma Toshkent.(2021 61-b)
3. Arestotel "Poetika" G'ofur G'ulom nashri. Toshkent 1980-yil
4. Matluba Isokova Dramaturg mahorati. O'quv qo'llanma Toshkent (2021 76, 77. B)